

XALQ KITOBLARI VA DOSTONLARDA TASAVVUF ALLOMALARI OBRAZINING TASVIRI

Buriyeva Shaxnoza Alisher qizi

Tayanch doktorant

Termiz davlat universiteti

UDK:2-587:821.512.133.09

ORCID: 0009-0007-6994-616X

sh.b.alisherovna@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada xalq xitoblari va dostonlarda tasavvuf allomalari obrazi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, xalq dostonlarida shayx va pir obrazlarining o'ziga xos tasviri, ularning yo'l ko'rsatuvchi, qahramon taqdirini belgilovchi kabi shakllarda namoyon bo'lishi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: xalq kitobi, zohid, murshid, murid, zuhd, chiltonlar, tavakkul

ОТРАЖЕНИЕ ОБРАЗА СУФИЙСКИХ УЧЕНЫХ В НАРОДНЫХ КНИГАХ И ДАСТАНАХ

Аннотация: В данной статье рассматривается образ суфийских ученых в народных книгах и дастанах. Также анализируется специфическое изображение образов шейхов и пиров в народных дастанах, их проявление в качестве путеводителей и фигур, определяющих судьбу героя.

Ключевые слова: народная книга, аскет (захид), муршид, мюрид, зузд (аскетизм), чилтоны (сорок святых), таваккуль (упование на Бога).

THE DEPICTION OF THE IMAGE OF SUFI SCHOLARS IN FOLK BOOKS AND EPICS (DASTANS)

Abstract: This article examines the image of Sufi scholars in folk books and epics (dastans). It also analyzes the specific depiction of the images of sheikhs and pirs in folk epics, and their manifestation as guides and figures who determine the hero's destiny.

Keywords: folk book, ascetic (zahid), murshid, murid, zuhd (asceticism), chiltons (forty saints), tawakkul (trust in God).

KIRISH

Hozirgi kunda ilmiy adabiyotlarda keng qo'llanilayotgan va adabiyotshunoslik terminlaridan biri sifatida qabul qilingan "xalq kitobi", "xalq romani" aslida o'zbek adabiyoti tarixidagi ma'lum va mashhur qissalardir. Uning hozirgi, yangi istilohi, boshqa ba'zi adabiyotshunoslik terminlari (poema, novella, satira, yumor, povest

kabilar) ga o‘xshash chetdan o‘zlashtirilgan. Tasavvuf allomalari obrazi “Qissayi Mashrab”, “Bobo Ravshan”, “Karbalonoma” kabi xalq kitoblarida, shuningdek, Hazrati Ali, Ibrohim Adham, Boyazid Bistomiy, Sayyid Ota, Ahmad Yassaviy haqida yaratilgan qissalarda uchratishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O‘zbek xalq kitoblarida so‘fiylar va tasavvufiy obrazlar asosan ibratli qissalar, diniy-ma‘rifiy rivoyatlar va dostonlarda ma‘naviy rahnamo, ilohiy ishq kuychisi va karomat ko‘rsatuvchi avliyolar sifatida tasvirlanadi. Bu asarlar xalq orasida Islom qadriyatlari va axloqiy tamoyillarni sodda tilda yoyishga xizmat qilgan. Xalq orasida eng ko‘p tarqalgan so‘fiy shaxslar va ular bilan bog‘liq asarlar quyidagilardir:

- So‘fi Olloyor: Uning asarlari (masalan, "Sabotul-ojizin") xalq orasida darslik darajasida o‘qilgan. Unda tasavvufiy tushunchalar xalqchil tilda, kamtarlik va ilohiy muhabbat mavzularida bayon etiladi.
- Xo‘ja Ahmad Yassaviy: "Hikmatlar" kitobi orqali turkiy xalqlar ma‘naviyatiga eng kuchli ta‘sir ko‘rsatgan so‘fiy siymodir. Uning hayoti va karomatlari haqidagi rivoyatlar "Nasabnoma" kabi xalq kitoblarida keng yoritilgan.
- Shayx Xudoydod Valiy: Xalq orasida avliyo va murshid sifatida tanilgan, uning hayoti bilan bog‘liq turli rivoyat va dostonlar mavjud.
- Shoir So‘fi (Ilyos Mulla Muhammad o‘g‘li): g‘azallarida tasavvufiy-falsafiy va ma‘rifiy qarashlarni uyg‘unlashtirgan demokratik shoir sifatida xalq orasida mashhur bo‘lgan.

Bulardan Xoja Ahmad Yassaviy — o‘zbek tasavvufining eng buyuk allomalaridan biridir. Quyi Sirdaryo vohasidan topilgan va hozirda Turkiston shahrida saqlanayotgan muallifi noma‘lum «Nasabnoma» risolasida esa Arslonbob bilan yosh Ahmadning ilk uchrashuvlari batafsil va maroqli bir shaklda tasvirlangan.[2:129] Unda hikoya qilinishicha, Muhammad (a.s.) Xoja Ahmadga yetkazish uchun Arslonbobga xirqa bilan xurmo beradilar va «To‘rtinchi xalifam va amakimning o‘g‘li Alining farzandi Imom Muhammad Hanafiy zurriyotidan Sayram tepaligida Xoja Ahmad dunyoga keladi. Uning otasi shayx Ibrohim va onasi Tog‘ay bibicha bibi, laqabi Qorasoch onadir» deya bashorat beradilar. Omonat xurmoni olgan Arslonbob Chahorterak viloyatida qirq yil zohidlikda yashab nafsini poklaydi. Shundan so‘ng Sayramga kelib Ahmadning otasi Ibrohim Shayx bilan tanishadi, yosh Ahmadni so‘raydi. Shunda Ibrohim Shayx Arslonbobni sinash uchun Ahmadning o‘rniga Sadriddin shayxni ko‘rsatadi. Arslonbob: «Bu bola malakut va din yo‘lboshchisi bo‘lgay, ammo biz millat va din egasi bo‘lgan o‘g‘lonni izlayapmiz, bu ikki bola orasida yer bilan osmonchalik farq bor», — deydi. Shunda Ibrohim Shayx: «Bir dallidevona o‘g‘lon bor, lekin u

maqtovingizga loyiq emas, goho mahzun, goho xurram, suvrati odamzod, biroq holi va qoli ajib va g‘arib», — deydi. Arslonbob Shayxning bu so‘zlarini eshitib darhol Ahmadning huzuriga boradi-yu, omonat xirqani topshiradi. Ahmad: «Jismimga ma’no beruvchi zohiriy boylikni berdingiz. Lekin qalbimning mohiyatini tashkil etuvchi sof xazinani emas. Shu bois men goh loydaman, goh suvda, goh g‘amginman, goh xurram», — deydi. Buni eshitgan Arslonbob omonat xurmoni ham taslim etadi va Ahmadning haqqiga duo qiladi.[3:117]

Mavlono Jaloliddin Rumiy esa o‘zining "Masnaviy" asari bilan nafaqat turk, balki butun musulmon olamida mashhurdir. Uning tasavvufiy fikrlari va darslari xalq kitoblarida ko‘pincha "ichki sayohat" va "Haqiqatan yuzaga chiqish" kabi falsafiy g‘oyalar bilan taqdim etiladi. Rumiy inson qalbining poklanishi, ma’naviy yuksalishi, va inson bilan Alloh o‘rtasidagi munosabatlarni tasvirlab, uni sevgi va muhabbat nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqadi. Rumiyning asarlaridagi "Ishq" (sevgi) tushunchasi nafaqat Allohga, balki boshqa insonlarga ham samimiy yondashuvni ta’kidlaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Shayx Bahovuddin Naqshband naqshbandiya tariqatining asoschisi sifatida tasavvufiy ta’limotda muhim rol o‘ynagan. Naqshbandiya tariqati, xususiyatiga ko‘ra, ruhiy tarbiya, sabr-toqat, yakka o‘zi ibodat qilish va shariatga qat’iy amal qilishni talab qiladi. Shayx Bahauddin Naqshbandning asosiy g‘oyasi insonning ichki poklanishi va haqiqiy ma’rifatga erishish edi. Uning "dil ba yor-u, das ba kor" degan g‘oyasi xalq orasida keng tarqalgan. Shayx Zayniddin Qobuliy esa o‘zining tasavvufiy darslari bilan xalq orasida mashhur bo‘lgan allomalardan biridir. U tasavvufni insonning ruhiy o‘zgarishi, haqiqiy farovonlikka erishish va muqaddas yo‘ldan yurish sifatida tasvirlagan. Shayx Zayniddin Qobuliy, o‘z asarlarida sabr, tavakkul, xolis niyat va haqiqiy axloqiy fazilatlarga alohida urg‘u berib, tasavvufiy yo‘lni izlovchi insonlarga o‘zining ko‘rsatmalarini taqdim etgan. Xalq kitoblarida uning ma’naviy yo‘li haqidagi hikoyalar, nafaqat diniy, balki axloqiy ma’noga ham boy.

Xalq kitoblarida tasavvuf allomalari obrazlari bir nechta tipajlarda namoyon bo‘ladi. Ulardan komil inson, murshid (pir), zohid, oshiq o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib, komil inson kamtarlik, taqvodorlik va ilohiy ishq bilan ziynatlangan, jamiyat uchun o‘rnak bo‘ladigan shaxs; murshid (Pir) muridlarni (shogirdlarni) to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi, ma’naviy tarbiyachi, ko‘pincha g‘oyibdan yordam beruvchi yoki to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi; zohid va oshiq esa dunyo lazzatlaridan voz kechib (zuhd), butun borlig‘ini Haq taologa bag‘ishlagan obrazlar sifatida tasvirlanadi. Shu bilan birga, bunday asarlarda may va mayxona, bulbul va gul hamda shayx va valiylarning karomatlari bilan bog‘liq tasavvufiy ramzlar ham o‘ziga xos mazmun kasb etadi.

Muhammad Ja'farxo'janing "Dostoni Amir Temur Ko'ragon" asarida Sayyid Ota ismli tasavvuf allomasi haqida xalq kitoblaridan rivoyat keltirilib, uning tariqat va shariat ilmida yetuk shaxs ekanligini ta'kidlaydi. Shuningdek, asarda uning karomatlari va Amir Temurning ma'naviy nasihatgo'yi, yo'l ko'rsatuvchisi bo'lgani ham ifoda etiladi.

Tasavvuf allomalari obrazi xalq og'zaki ijodining bir bo'lagi bo'lgan xalq dostonlarida ham uchraydi. Bunda ushbu obrazlar real hayotiy chizgilar bilan birga, xalq xayoloti mahsuli bo'lgan mo'jizaviy (karomat) xususiyatlar bilan boyitilganining guvohi bo'lamiz. Bosh qahramon mushkul ahvolga tushganda yoki tug'ilishidan oldin (masalan, Alpomishning dunyoga kelishi) Shohimardon pir (Hazrati Ali), Xizr yoki chiltonlar unga yordamga keladi. Bu obrazlar tasavvufdagi "g'oyibona madad" tushunchasining xalqona ifodasidir. "Alpomish" dostonida tasavvuf allomalari va avliyolar bevosita real tarixiy shaxslar sifatida emas, balki qahramonning taqdirini belgilovchi sifatida tasvirlangan. Tasavvuf silsilalarining asosi sanalgan Shohimardon Alpomishning asosiy piri bo'lib, Alpomish tug'ilishidan oldin ota-onasi (Boybo'ri va Boysari) aynan Hazrati Shohimardon qabrida tunab, farzand tilaydilar. "Shu yerdan Shohimardon pining ravzasi uch kunchalik yo'l kelar ekan, har kim borib tunar ekan:davlat talab davlat tilar ekan, farzand talab farzand tilar ekan, oxirat talab imon tilar ekan, qirq kun tunagan kishi murodiga yetib qaytar ekan".[1:15]Bu epizodda tasavvufdagi "tavassul" (avliyolar vositasi bilan Allohdan so'rash) tushunchasi yotadi. Murshidning muridini doimiy himoya qilishi g'oyasi Alpomish qiyin vaziyatga tushganda (masalan, zindonda yoki yoy tortishda) Shohimardan unga g'oyibdan madad berishida ham aks etadi.

XULOSA

Shu bilan birga, dostonning turli o'rinlarida "qirq chiltonlar" va Xizr obrazlari ham uchraydi. Ular Alpomishga ruhiy quvvat va jismoniy kuch baxsh etadilar. Alpomish 14 yoshida alp bo'lib yetishishida bu pirlarning "himmat"i (ruhiy yordami) hal qiluvchi rol o'ynaydi. Chiltonlar – tasavvufdagi "Rijolul g'ayb" (g'oyib kishilari) iyerarxiasining xalqona talqinidir. Ular qahramonni oddiy inson darajasidan "Alp" (kamil insonning jangovar ko'rinishi) darajasiga ko'taradilar. Dostondagi avliyolar obrazi qahramonga faqat kuch emas, balki axloqiy yo'nalish ham beradi. Alpomishning zindondagi etti yillik sabri tasavvufiy riyozaatga o'xshatiladi. Pirlar unga faqat sabri yetilganida najot berib, Allomalar va pirlar Alpomishni faqat o'z manfaati uchun emas, balki el-yurt birligi va adolat o'rnatish uchun qo'llab-quvvatlaydilar. "Alpomish"dagi tasavvufiy obrazlar qahramonni oddiy polvondan ilohiy quvvat bilan qurollangan ma'naviy shaxsga aylantiradi. Bu orqali doston tinglovchisiga "Haqiqiy

g'alabaga faqat ma'naviy poklanish va pirlar duosi bilan erishiladi" degan g'oya singdiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алпомиш Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ АЛИШЕР НАВОИЙ НОМИДАГИ ТИЛ ВА АДАБИЁТ ИНСТИТУТИ «ШАРҚ» НАШРИЁТ-МАТБАА КОНЦЕРНИ БОШ ТАХРИРИЯТИ ТОШКЕНТ — 1998.-Б.399
2. Nodirxon Hasan. Yassaviylikka doir manbalar va “Devoni hikmat”. – Toshkent, Akademnashr, 2012. – В.129.
3. Муминов А.К. Кокандская версия исламизации Туркестана. – Б.117.
4. Мирзаев Т. Халқ бахшиларининг репертуари.-Тошкент. Ёзувчи, 1977;
5. Ўзбек фолклори очерклари. Уч томлик, 1-том. -Тошкент: Фан, 1988
6. Номиджон Номидий. Tasavvuf allomlari.- Toshkent: Sharq, 2004;
7. Ислом тасаввуфи манбалари (Тасаввуф назарияси ва тарихи). Тузувчи ва изоҳлар муаллифи: Болтабоев Ҳ. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001.
8. Ҳаққул И. Аҳмад Яссавий. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001.
9. Ўзбек адабиёти тарихи. (Масъул муҳаррир В.Абдуллаев) Беш томлик, 3-том. - Тошкент: Фан, 1978.-Б.152